XALQ DEPUTATLARI BEKOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 31-yanvar VII-5-15-10-135-K/25 Bekobod tumani

Bekobod tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha amalga oshirilgan ishlarning yakuniy natijalarini tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar maʼmuriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish boʻyicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yoʻl xaritasi hamda Oʻzbekiston Respublikasining “Maʼmuriy-hududiy tuzilishi toʻgʻrisida”gi qonunining 10-moddasi ijrosini taʼminlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Maʼmuriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi toʻgʻrisida”gi nizom, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda oʻtkazilgan vedeoselektor yigʻilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yoʻl xaritasi” maʼlumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligining 2024-yil 4-apreldagi Toshkent viloyati hokimligiga yuborilgan 03/08-3236-sonli hamda Respublika aerogodeziya markazining 2024-yil 3-iyuldagi Bekobod tumani hokimiga 01-1191-sonli xat orqali yuborilgan maʼmuriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Bekobod tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasining 2024-yil 10-sentyabrdagi 1-sonli yigʻilish bayoni maʼqullansin.

4. Bekobod tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini koʻrib chiqish boʻyicha tuman komissiyasi tomonidan oʻrganib chiqilgan materiallarga asosan tuman bilan chegaradosh boʻlgan Boʻka tumani va Bekobod shahri oʻrtasidagi chegara chizigʻini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining tavsifi **1-ilova**ga, tayyorlangan kartografik chizmasi **2-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman maʼmuriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizigʻi hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer maydonlaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq , yoʻl va boshqa tabiiy hamda sunʼiy obyektlar) saqlab qolinishi boʻyicha Kadastr agentligining tuman boʻlimi boshligʻi F.Raxmonovga nazorat olib borishi belgilansin.

6. Makur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha oʻrinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7.Ushbu qarorning tasdigʻi Xalq deputatlari viloyat Kengashidan soʻralsin.

Kengash raisi DO‘SBEKOV SHUXRAT BEGIMQULOVICH

Xalq deputatlari Bekobod tumani
Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-5-15-10-135-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent viloyati Bekobod tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining
T A V S I F I

Sirdaryo viloyati, Boʻka va Bekobod tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, Sirdaryo daryosi oʻzanida joylashgan nuqta boshlangʻich 1-nuqta deb qabul qilindi *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°38'10,073", sharqiy uzoqlik koordinatalari 69°03'42,997").*

A dan B gacha Boʻka tumani yerlari bilan 1 -11-nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali Sirdaryo daryosining oʻzanidan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 106 metr masofada quruq soyga oʻtadi, keyin quruq soy boʻylab sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 524 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, soʻng dala tuproq yoʻlning janub tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 26 metr, soʻngra yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 950 metr, keyin yoʻlning janub tomoni bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda 1901 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°37'28,151", sharqiy uzoqlik 69°05'42,958").*

2-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 335 metr masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chiziq orqali janubiy-sharqiy yoʻnalishda 56 metr masofada botqoq chegarasiga oʻtadi va botqoqlik chegarasi boʻylab umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1377 metr masofada Chiyalisoy daryosiga tutashadi va umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda daryoning suv oqimiga qarshi chap qirgʻogʻi bilan 404 metr masofani oʻtib, daryo boʻyida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'55,136", sharqiy uzoqlik 69°06'24,748").*

3-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 63 metr masofada Chiyalisoy daryosi va dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, keyin dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 64 metr, soʻng yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 43 metr, soʻngra yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 69 metr, keyin yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 135 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegara boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda 118 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 75 metr masofada tomorqa chegarasiga oʻtadi, soʻng tomorqa chegarasi boʻylab umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 136 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtadi, soʻngra yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 220 metr masofada

dala tuproq yo‘lini kesib o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 21 metr masofada zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 281 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy yo‘nalishda 10 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, so‘ng dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 938 metr masofani oʻtib, yoʻl bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°36'06,998", sharqiy uzoqlik 69°07'03,901").*

4-nuqtadan chegara quruq chiziq orqali dala tuproq yoʻlidan sharqiy yoʻnalishda 171 metr masofada zovurga tutashadi va umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1635 metr, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1837 metr, soʻngra umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5350 metr masofada R-20 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°37'05,492", sharqiy uzoqlik 69°12'43,652").*

5-nuqtadan chegara chizigʻi R-20 avtomobil yoʻldan zovurga oʻtadi va umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4025 metr, keyin umumiy sharqiy yoʻnalishda 2931 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi, soʻng yoʻlni kesib oʻtib, yoʻlning sharq tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 58 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib zovurga tutashadi soʻngra umumiy sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hiosbga olgan holda 986 metr masofada dala tuproq yoʻliga oʻtadi, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 830 metr, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 260 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib zovurga tutashadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 265 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°38'12,185", sharqiy uzoqlik 69°18'30,598").*

6-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 27 metr masofada zovurni, dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, ariqqa tutashadi va shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 315 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 115 metr masofani oʻtadi, soʻng umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 382 metr masofada kanalga tutashadi, soʻngra umumiy shimoliy yoʻnalishda kanalning suv oqimiga qasrhi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1590 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°39'13,988", sharqiy uzoqlik 69°18'06,350").*

7-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan Sovxozniy-2 kanaliga tutashadi va sharqiy yoʻnalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1040 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 619 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib Toshkent kanaliga tutashadi soʻng umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1159 metr masofani oʻtib, kanal bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga

tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°39'46,031", sharqiy uzoqlik 69°18'49,407").*

8-nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy yoʻnalishda Toshkent kanalining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1888 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 512 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 626 metr, soʻngra shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 946 metr masofani oʻtib, koʻprik boʻyida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°41'19,318", sharqiy uzoqlik 69°19'38,149").*

9-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻli koʻprigini kesib oʻtib Toshkent kanaliga oʻtadi va umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda kanalning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 802 metr, keyin sharqiy yoʻnalishda 960 metr, soʻngra umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1267 metr, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 367 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°42'20,726", sharqiy uzoqlik 69°19'56,323").*

10-nuqtadan chegara chizigʻi 4K792 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib Toshkent kanaliga tutashadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda kanalning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 199 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda 283 metr, soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 603 metr, soʻngra umumiy sharqiy yoʻnalishda 569 metr masofani oʻtib, Tojikiston Respublikasi hamda Bekobod, Boʻka tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy kanal boʻyida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°42'43,830", sharqiy uzoqlik 69°20'45,985").*

B dan D gacha Tojikiston Respublikasi yerlari bilan 11 - 12 - nuqtalar oralig'ida chegara tavsifi quyidagicha:

11-nuqtadan 12-nuqtagacha chegara chizigʻi davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish boʻyicha mavjud chegara chizigʻi boʻyicha olindi. *(shimoliy kenglik 40°15'10,672", sharqiy uzoqlik 69°16'40,298").*

D dan E gacha Bekobod shahri yerlari bilan 12 - 29 - nuqtalar oralig'ida chegara tavsifi quyidagicha:

12-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali janubiy yoʻnalishda 63 metr masofada zovurdan dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 176 metr masofada tomorqa chegarasiga oʻtadi, keyin chegara boʻylab gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 291 metr, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda 153 metr masofani oʻtib, tomorqa chegarasi boʻyida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°15'08,286", sharqiy uzoqlik 69°16'17,825").*

13-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa chegarasi boʻylab umumiy janubiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 342 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 395 metr, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 322 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°14'55,706", sharqiy uzoqlik 69°15'58,293").*

14-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2253 metr masofada R-20 avtomobil yoʻlini

kesib oʻtib, keyin beton ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 332 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°15'37,145", sharqiy uzoqlik 69°14'31,436")*.

15-nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda beton ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1880 metr masofada qishloq ichki yo lini kesib oʻtib, keyin dala tuproq yo liga tutashadi va yo lning janub tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 105 metr, soʻng yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1050 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°14'10,852", sharqiy uzoqlik 69°15'10,677")*.

16-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan Xasyoz kanalini va qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtadi va ariqqa tutashadi, keyin ariqning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 163 metr masofada tomorqa devoriga tutashadi va devor boʻylab gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 203 metr masofani oʻtib, tomorqa devorida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°14'08,314", sharqiy uzoqlik 69°14'57,569")*.

17-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab janubiy-sharqiy yoʻnalishda 13 metr, keyin umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 424 metr masofada Avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'59,445", sharqiy uzoqlik 69°14'43,960")*.

18-nuqtadan chegara chizigʻi Avtomobil yoʻlidan dala tuproq yoʻliga oʻtadi va yoʻlning shimol tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 451 metr masofani oʻtadi, keyin toʻgʻri chiziq orqali umumiy yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 222 metr masofada Sirdaryo daryosini kesib oʻtib, daryo boʻyida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'44,668", sharqiy uzoqlik 69°14'20,720")*.

19-nuqtadan chegara chizigʻi Sirdaryo daryosining suv oqimi boʻylab chap qirgʻoʻi bilan umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 897 metr masofada tomorqa devoriga tutashadi va devor boʻylab janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 123 metr masofada qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 14 metr, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 120 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'33,287", sharqiy uzoqlik 69°13'45,131")*.

20-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 292 metr masofada tomorqa devoriga oʻtadi va devor boʻylab shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 115 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 57 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtadi, yoʻl boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'32,337", sharqiy uzoqlik 69°13'30,439")*.

21-nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 137 metr, keyin yoʻlining shimol tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 59 metr, soʻng yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 14 metr masofada tomorqa devoriga oʻtadi va devor boʻylab gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 135 metr masofani oʻtib, tomorqa devori boʻyida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'35,308",*

sharqiy uzoqlik 69°13'20,066").

22-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 120 metr masofani oʻtib, tomorqa devori boʻyida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'31,991", sharqiy uzoqlik 69°13'21,100").*

23-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa chegarasidan tomorqa devoriga oʻtadi va devor boʻylab sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 45 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 78 metr masofani oʻtib, tomorqa devori boʻyida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'29,078", sharqiy uzoqlik 69°13'23,406").*

24-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 93 metr masofani oʻtib, tomorq devori boʻyida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 440°13'27,308", sharqiy uzoqlik 69°13'20,745").*

25-nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 35 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtadi, keyin yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 226 metr, soʻng yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 274 metr masofani oʻti, keyin toʻgʻri chiziq orqali janubiy yoʻnalishda 79 metr masofada R-26 avtomobil yoʻlini, Doʻstlik kanalini kesib oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'11,779", sharqiy uzoqlik 69°13'08,830").*

26-nuqtadan chegara chizigʻi Doʻstlik kanalining suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 1167 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli koʻprigi boʻyida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'09,813", sharqiy uzoqlik 69°12'19,690").*

27-nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻli koʻprigidan Doʻstlik kanaliga oʻtadi va kanalning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 3961 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°13'28,829", sharqiy uzoqlik 69°09'35,376").*

28-nuqtadan chegara chizigʻi gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 124 metr masofada Doʻstlik kanalini kesib oʻtib, Sirdaryo viloyati hamda Bekobod shahri, Bekobod tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, kanal boʻyida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40° 13' 26,916", sharqiy uzoqlik 69°09'30,770").*

E dan A gacha Sirdaryo viloyati yerlari bilan 29 - 1 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

29 -nuqtadan chegara chizigʻi Doʻstlik kanalning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 4675 metr masofani masofani oʻtib, keyin toʻgʻri chiziq orqali gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 79 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va dala tuproq yoʻlining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 122 metr masofani oʻtib, soʻng dala tuproq yoʻlini kesib oʻtadi va ariqqa tutashadi, soʻngra ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 476 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 15' 36,731", sharqiy uzunlik 69° 07' 37,507").*

30-nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan

umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2600 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtadi va Doʻstlik kanali boʻyida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°16'44,571", sharqiy uzunlik 69°06'54,412")*.

31-nuqtadan chegara chizigʻi Doʻstlik kanalining suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 5693 metr masofani oʻtib, keyin umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 9675 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°23'52,944", sharqiy uzunlik 69°04'34,715")*.

32-nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali Doʻstlik kanalini va dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, quruq ariqqa tutashadi va quruq ariq boʻylab oʻng tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1125 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzanida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°24'07,654", sharqiy uzunlik 69°05'17,209")*.

33-nuqtadan chegara chizigʻi Sirdaryo daryosining suv oqimi boʻylab umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 25630 metr masofani oʻtib, Sirdaryo daryosida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'47,419", sharqiy uzunlik 69°04'41,751")*.

34-nuqtadan chegara chizigʻi Sirdaryo daryosining suv oqimi boʻylab umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5577 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1278 metr masofani oʻtib, soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2937 metr masofani oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzanida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'41,457", sharqiy uzunlik 69°02'35,440")*.

35-nuqtadan chegara chizigʻi Sirdaryo daryosining suv oqimi boʻylab umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2623 metr masofani oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzanida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'48,108", sharqiy uzunlik 69°03'35,124")*.

36-nuqtadan chegara chizigʻi Sirdaryo daryosining oʻzani va suv oqimi boʻylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2731 metr masofani oʻtib, keyin umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5266 metr masofani oʻtib, soʻng umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1570 metr masofani oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzanida joylashgan boshlangʻich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 38' 10,073", sharqiy uzunlik 69°03' 42,99*

Xalq deputatlari Bekobod tumani
Kengashining
2025-yil 31-yanvardagi
VII-5-15-10-135-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Toshkent viloyati Bekobod tumani ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI

